



THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE KHOREZM REGION DURING THE SOVIET RULE

Sevinchoy Quranboyeva

*A basic doctoral student at Urgench State University
Khorezm, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Education, school, teacher, general secondary education, preschool educational institutions, education, vocational technical school, higher education.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: This article provides information about to develop the education sector in the Khorezm region in the years after World War II and their impact on the daily lives of the population, the schools, and the attention paid to teachers.

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI

Sevinchoy Quranboyeva

*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
Xorazim, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ta'lim, maktab, o'qituvchi, umumiy o'rta talim, maktabgacha ta'lim muassasalari, maorif, kasb-hunar texnikumi, oliy ta'lim.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Xorazm viloyatida ta'lim sohasini rivojlantirish uchun qabul qilingan qonunlar va ularning aholi kundalik turmush tarziga ta'sirlari, maktablarga o'quvchilarning jalb qilinishi, o'qituvchilarga bo'lgan e'tibor haqida ma'lumotlar keltirilgan.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

Севинчой Куранбоева

*Соискатель степени Ургенчского государственного университета
Хорезм, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Образование школа учитель общее среднее образование дошкольные образовательные учреждения профессионально-техническое училище высшее образование.

Аннотация: В статье представлена информация о законах, принятых для развития сферы образования в Хорезмской области в годы после Второй мировой войны, и их влиянии на повседневную жизнь населения, привлечение учеников в школы и внимание, уделяемое учителям.

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Sovet ittifoqi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda jiddiy inqirozga yuz tutgan bo'lsada, ta'lim sohasini tiklashga katta e'tibor qaratildi. Urush yillarida ko'plab maktablar yopilgan, o'qituvchilar frontga jo'natilgan, bolalar esa dars o'rniga og'ir mehnatga jalb qilingan edi. Revolyutsiyaga qadar O'zbekiston SSR aholisi deyarli yoppasiga savodsiz edi. Xiva xonligi davrida mehnatkash o'zbeklarning bolalari maktablarga kirib o'qiy olmasdi. U vaqtda faqat chor amaldorlari, savdogarlar, mahalliy feodallarning bolalari o'qir edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ta'lim sohasini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilingan. Bu qarorlar asosida Xorazm viloyatida ham ta'lim sohasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Urushdan keyingi davrda mamlakatda ta'lim, fan -madaniyat sohasini tiklash va rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, Xorazm viloyatida ham ta'lim tizimini qayta tashkil etish, maktab va boqchalar sonini ko'paytirish, o'qituvchilarni tayyorlash va aholining savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar soveti yurtimizda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi qarorlarni qabul qilgan. Jumladan; 1966-yil 31-dekabrda "O'rta umumiy ta'lim maktablarini ishini yanada yaxshilash choralari to'g'risida", 1969-yil 6-martda "Respublikada umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan xalq maorifini yaxshilash choralari to'g'risida", 1971-yil 22-noyabrda "Xunar-texnika ta'limini yanada rivojlantirish va Respublika xalq xo'jaligini malakali ishchi kadrlar bilan ta'minlash to'g'risida", 1973-yil 3-avgustda "Qishloq umumiy ta'lim maktabining ish sharoitini yaxshilash tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari yuzasidan olib borilgan ishlar yurtimizda ta'lim sohasini sifat jihatdan yuqori natijalarga erishishga olib keldi. (1). Urushdan keyingi davrlarda vayron bo'lgan yoki vaqtincha yopilgan maktablar qayta tiklandi. Shaharlardagina emas balki qishloqlarda ham boshlang'ich va yetti yillik umumiy majburiy ta'limning joriy qilinishi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. O'quvchilarning maktablarga jalb qilinishi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Respublikada bo'lgani kabi Xorazmda ham yangi sovet maktablari va savodsizlikni tugatish kurslari ish boshladi. 1949-yildan boshlab 7 yillik majburiy ta'lim joriy qilindi. Bu islohot Xorazmdagi o'quvchilarning ta'lim olishini majburiy tarzda kafolatlab berdi. Keyinchalik 8 va 10 yillik maktablar faoliyati kengaytirildi.

Metod. Ushbu mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning bir qancha uslublari, jumladan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarning tahlili, sintez, ma'lumotlarning xolisligi, realligi kabi prinsiplardan foydalanildi.

Muhokama. Xorazm viloyatida savodsizlikni tugatish chora-tadbirlari amalga oshirilganligi natijasida 1946-yil oxiriga kelib savodli aholi foizi 3 baravardan ziyodga ko'paydi. 1950-yil oxiriga kelib oblastdagi 3 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan aholi o'rtasida savodsizlik to'la tugatildi. Xorazm viloyatida maorif va maktab ishlarini yaxshilash uchun hamma shart-sharoitlar yaratib berila boshlandi. 1949-yilga kelib oblastimizda 837 ta umumiy ta'lim maktabi bo'lib, ularda 61.334 bola ta'lim olgan. Har yili aholining madaniy dam olishi, bilimli bo'lishi, yaxshi sharoitlarda yashashi uchun davlat tomonidan katta miqdorda mablag'lar ajratila boshlangan. Masalan; viloyatda xalq maorifi ishlari uchun 1952-1953 yillarda 51 million 354 ming so'm mablag' ajratilgan. (2). 1950-1960-yillardagi eng dolzarb muammolardan biri yangi maktab binolarini qurish, ularni moddiy bazasini mustahkamlash, muallimlarni qayta tayyorlash malakasini oshirishdan iborat edi. Davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar evaziga har yili viloyat rayon va qishloqlarida yangi maktablar qurildi, eskilari qaytadan ta'mirlandi. Bu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni ham asta- sekin ko'payib bordi. Masalan; 1949-yilda viloyatimizda 360 ta boshlang'ich, yetti yillik va o'rta maktablar bor bo'lib, ularda mehnatkashlarning 63 mingga yaqin o'g'il-qizlari ta'lim olishgan. Boshlang'ich, yetti yillik va o'rta maktablarda o'quvchilar soni ishchi va qishloq yoshlari, kattalar maktablaridagi o'quvchilar sonini ham qo'shib hisoblaganda bu o'quv yilida o'quvchilar soni ko'paydi. 1966-1967-yillarda oblastdagi 391 ta umumiy ta'lim maktablarida 112 ming bola o'qidi. Bu hisobga kechki ishchi va qishloq yoshlari maktablari kirmaydi. 1965-1985-yillarda maktablarda tabiiy va gumanitar fanlardan chuqurlashtirilgan bilim berishni yo'lga qo'yilganligi maorif hayotidagi katta voqea bo'ldi. Xususan, Shovot rayonida "Al-Xorazmiy" nomli litsey matematika fanidan chuqurlashtirilgan bilim dargohi sifatida faoliyatini boshlagan.(3) 1976-1985-yillar davomida Shovot tumani qishloqlaridagi jami 20 dan ortiq maktab yangidan qurilib ishga tushirildi. Urushdan keyin Yangiariq rayonida ham savodsizlikga yoppasiga barham berildi. Ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor nihoyatda kuchaytirildi. Kolxozchilar mablag'i hisobidan 11 ta, davlat byudjeti hisobidan 2 ta tipovoy maktab qurildi. Maktablarning soni va ularda o'qiydigan o'quvchilar soni yildan-yilga ko'payib borgan. 1965-1966-o'quv yilida sakkiz yillik maktablar soni 70 ta unda o'qiydigan o'quvchilar soni 17,040 nafarga, o'rta maktablarning soni 15 taga, bitkazuvchilarning soni 918 taga yetdi. O'qituvchilar tarkibi ham malakali mutahassislar bilan to'ldirilib borilgan. Yetti yillik oxiriga kelib rayonda 969 ta o'qituvchi bo'lgan va shulardan 295 nafarini xotin-qizlar tashkil qilgan. Oliy ma'lumotli kishilar 412 kishini, to'liqsiz oliy ma'lumotlilar 332 kishini tashkil qilgan. 7 kishi "Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi"

unvonini olgan. Partiya va hukumatning xotin - qizlarni tashkilotchilik ishiga tortish haqidagi qaroridan so'ng rayon maktablarida 9 ta xotin-qiz maktab direktori, 5 ayol imiy bo'lim mudirlari bo'lib ishlaganlar. (4) 1971-1973-yillarda Yangiariq rayonida 4328 o'rinli 9 ta maktab, Gurlan rayonida 3520 o'rinli, Xiva rayonida 3300 o'rinli yangi maktab binolari ishga tushirildi. 1973-1974-o'quv yilida viloyatimizda umumiy ta'lim maktablari soni 404 taga yetdi. Shulardan boshlang'ich maktablar 63 ta, sakkiz yillik maktablar 145 ta, o'rta maktablar 193 ta, maxsus maktablar 3 ta bo'lgan. (5)

O'ninchi besh yillikda viloyatimiz maktablarida umumiy majburiy ta'lim muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu davrda 40 ming o'rinlik 59 ta maktab binosi hamda 9 ming o'rinlik bog'chayli binolari qurilib ishga tushirildi. Barcha maktablarda televizor, radio-magnitafon va ko'plab texnik vositalar o'quv tarbiya ishining samaradorligini oshirishga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Maktablardagi kinoteatrlar tarmog'i 111 taga yetkazildi. Bu davrda viloyatdagi 397 ta umumta'lim maktablarida mehnatkashlarning 207 mingga yaqin farzandlari ta'lim olishgan. Bu davrda xalq maorifi sohasida ishlayotgan 14 ming o'qituvchining 78 foizi oliy ma'lumotli mutaxassislar bo'lgan. (6) Umumiy talim maktablari o'quvchilarini bepul darsliklar bilan ta'minlash davom ettirildi. 1982-yilning 1-sentabrdan boshlab 1-7-sinflarning o'quvchilari bilan bir qatorda 8-9-sinflarning o'quvchilari ham darsliklarni bepul olganlar.

Natijalar. Sovet hokimiyati yillarida Xorazmda ham xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, yoshlarga umumiy o'rta ta'limni amalga oshirishga hissa qo'shishga qaratilgan kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Maktablarning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash va xalq maorifi sistemasini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qonunga muvofiq bu o'quv yilida viloyatdagi barcha o'rta maktablarda turli kasplar bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi joriy etildi va o'quvchilar o'qishni ishlab chiqarishdagi ishlar bilan bog'lab olib boradigan bo'lishdi. 1970-1980-yillarda viloyat maktablarining bevosita ishlab chiqarish bilan aloqasi mustahkamlandi. Mehnat ta'limini alohida o'qitishga e'tibor qaratildi. Viloyatimizda 1975-yilda kasb-hunar maktablarida 3200 nafar kishi o'qigan. Umumiy ta'lim, ishlab chiqarish va texnika darajasining, mutaxassislar sonining o'sishi natijasida aholining turmush saviyasi oshdi. Qishloq o'quvchilarini mehnatga o'rgatishning samarali usullaridan biri o'quvchilar ishlab chiqarish brigadalari bo'lib kelgan. 1979-yilda qishloqda 267 o'quvchilar maktabi ishlab chiqarish brigadalarida 6 mingdan ortiq maktab o'quvchilari, asosan komsomol a'zolari bor edi. (7) 1979-1980-o'quv yilida 396 umumiy ta'lim maktablarida mashg'ulotlar olib borildi. Ularda 200 mingdan ko'proq o'quvchi ta'lim-tarbiya olgan. Bu davrga kelib maktablarning 80 foizdan ko'prog'i zamonaviy tipdagi yaxshi jihozlangan binolarda joylashgan.

Keyingi yillarda xalq maorifi madaniyatini yanada rivojlantirish davom ettirildi. 322 ming kishi ta'limning har hil turlariga jalb etildi. Shundan 234 ming kishi umumiy ta'lim maktablarida, 16 ming kishi hunar-tehnika bilim yurtlarida, 9 ming kishi o'rta mahsus o'quv yurtlarida ta'lim olishgan. bo'lsa (8) 1984-yilda bu ko'rsatkichlar yanada oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu yilda 272 ming kishi ta'limning har hil turlariga jalb etildi. 18 ming kishi hunar-texnika bilim yurtlarida, 9,6 ming kishi o'rta mahsus bilim yurtlarida ta'lim oldi. 47 ming bola doimiy maktabgacha bolalar muassasalarida tarbiyalangan. (9) Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oblastimizda sakkiz yillikni tamomlagan o'smirlarni turli o'quv tarmoqlari orqali o'rta ta'limga jalb qilish kengaytirilgan.

Sovet davrida ko'plab yangi texnikumlar va kasb-hunar o'quv yurtlari, oliy ma'lumot beruvchi institutlar ochildi. Bu ta'lim muassasalari qishloq xo'jaligi sanoat va texnika sohalarida malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qildi. Viloyatda urush yillari maorif, ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan e'tibor va ehtiyojning yuksala borishi hamda urush davri kadrlar yetishmasligi muammosini hal qilish uchun 1941-yilning 1-sentabrida Xorazm o'qituvchilar tayyorlash instituti negizida Xorazm pedagogika institutining tashkil etilishi uchun zamin bo'ldi. Shu yili institut tarkibida fizika-matematika, o'zbek tili va adabiyoti hamda tarix fakultetlari ochildi. (10) 1944-yilda to'liqsiz oliy ma'lumot beruvchi ikki yillik o'qituvchilar instituti bilan bir qatorda oliy ma'lumot beruvchi to'rt yillik pedagogika instituti ham ochildi. Urushning dastlabki uch yili davomida pedagogika oliy o'quv yurtlari 4600, pedagogika bilim yurtlarida 220 nafar o'qituvchi tayyorlandi. (11) Xivadagi sirtqi pedagogika bilim yurti oblastimizning boshlang'ich maktablari uchun ko'plab o'qituvchi kadrlar tayyorlab bergan. 1950-yilda 436 ta o'quvchi bu bilim yurtida ta'lim olgan. Viloyatimizdagi birlashgan pedagogika va o'qituvchilar institutida xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida mingdan ortiq yoshlar ta'lim olmoqdalar, 3 joyda kechki ishchi-yoshlar maktabi va 62 joyda qishloq yoshlar maktab ishlab turibdi. (12) Keyingi yillarda Xorazm maktablarida ishlayotgan o'qituvchi tarbiyachi kadrlar son jihatdan o'sdi. Maktablar malakali mutahasis kadrlar bilan mustahkamlandi. 1966-1967-o'quv yilida 5794 o'qituvchi va tarbiyachilardan 2485 kishi yoki 42,8 foizi to'liq oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa, 1970-71-o'quv yilida to'liq oliy ma'lumotga ega bo'lganlar jami o'qituvchilarning 56,4 foizini tashkil qilgan. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi orasida oliy ma'lumotli kishilar salmog'i oshdi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Sovet ittifoqining ta'lim siyosati Xorazmda savodsizlikni tugatish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilgan bo'lsada bu jarayon mahalliy madaniyat va qadriyatlarning cheklanishi kabi salbiy oqibatlarga ham olib keldi. Shunga qaramay Sovet davrida yaratilgan ta'lim infratuzilmasi va intellektual salohiyat bugungi kunda ham Xorazm viloyatining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xorazmda qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa sohalar uchun malakali mutaxassislar

tayyorlandi. Bu hududning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim tizimining rivojlanishi urbanizatsiya jarayonini tezlashtirdi, ko'plab yoshlar o'qish uchun shaharlarga ko'chib o'tdi, bu esa shaharlarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston SSR xalq maorifining yarim asrlik taraqqiyot yo'li. Toshkent 1974-yil. 158-b.
2. Xorazm haqiqati. 1956-yil 22-yanvar. №16 . (7677)
3. Xorazm haqiqati. 1960-yil 27-yanvar. № 19. (8711).
4. Komiljon Nurjonov, Mamlakat Jumaniyozova. Xonqa tarixi, Xorazm nashriyoti, Urganch- 2015. 100-b.
5. O'zbekiston SSR xalq maorifining yarim asrlik taraqqiyot yo'li. Toshkent 1974-yil. 167-b.
6. Xorazm haqiqati. 1981-yil 31-yanvar. № 22. (14088).
7. Р. Джуманиязов. Хорезм краткий очерк политической и социально-экономической истории 1920-1990 гг. Ургенч, издательство “Фан “1991 г. С-73.
8. Xorazm haqiqati. 1983-yil 8-fevral. № 28. (14590).
9. Xorazm haqiqati. 1984 yil 4-fevral. № 25. (14837).
10. Абдуллаев Б., Рузметов Б., Абдуллаев А. Урганч Давлат университети олимлари. - Тошкент: Лессон Пресс, 2017. – Б.5.
11. Firuza Jumaniyozova. “ Xorazmliklarning fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan hissalari”, monografiya. “Durdona” nashriyoti Buxoro-2024. 67-b.
12. Xorazm haqiqati. 1957-yil 17-may. № 97. (8016)